

KORXONA XARAJATLARI VA FOYDASI

*Orolov Nomozbek G'ayrat o'g'li
To'ychiyev Xudoyberdi Vohid o'g'li
Majidov Husan Sodiq og'li
DTPI Moliya va moliyaviy texnologiya
Yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Korxonalar xarajatlari to'g'risida tushuncha va ularning tasnifi, foyda va uni shakllantirish manbalari, ishlab chiqarish korxonalarining faoliyati moddiy va mehnat harajatlari bilan bog'liq ma'lumotlar, foydani taqsimlash tartibi va uni ko'paytirish yo'llari, ishlab chiqarish korxonalarining mahsulotlarini sotish bilan bog'liq ma'lumotlar keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Foydani taqsimlash, ishlab chiqarish, mahsulot xarajatlari, daromad, Korxonalar faoliyati, foydani shakllantirish xarajatlari.

Ishlab chiqarish korxonalarining faoliyati moddiy va mehnat xarajatlari bilan bog'liq. Xarajatlarning asosiy hissasi mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarishning jami harajatlari mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil etadi va unga qarab ishlab chiqarayotgan mahsulot korxonaga qanchaga tushayotganini aniqlash mumkin. Ishlab chiqarish korxonalarining mahsulotlarni sotish bilan bog'liq xarajatlarni ham amalga oshirishadi. Bunday xarajatlari ishlab chiqarishdan tashqari yoki tijorat xarajatlari ham deyiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq korxonalarining xarajatlari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlari ;
- ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydada hisobga olinadigan hamda davr xarajatlari kiritiladigan xarajatlari;
- Korxonalar umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadigan korxonaning moliyaviy faoliyati bo'yicha xarajatlari;
- Favqulodda zararlari

Foyda va uni shakllantirish manbalari. Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida korxonalar xo'jalik faoliyatini baholovchi asosiy mezon –foydalar.

O'zi foyda nima? Foyda bu murakkab iqtisodiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. U asosan qo'shimcha qiymatni yaratish va ishlatish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Korxonalarining faoliyatiga baho berishda sotilgan mahsulotlarning hajmi ularga qilingan sarf-harajatlar va foyda tushunchalaridan keng foydalaniladi. Korxonalarda Tovar va xizmatlarni sotishdan olingan mablag'lar ularning pul tushumlari yoki daromadlari deyiladi. Korxonada pul daromadlaridan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi foyda deb yuritiladi. Ayrim adabiyotlarda bu iqtisodiy foyda ham deb yuritiladi.

Foydaning tarkib topishi ikki bosqichdan o'tadi:

Birinchi bosqichda foyda ishlab chiqarish jarayonida yangi qiymatning yaratilish chog'ida vujudga keladi. Yangidan yaratilgan qiymat tarkibidagi qo'shimcha qiymat foydaning asosiy manbai hisoblanadi, biroq u hali aniq foyda shaklida namoyon bo'lmaydi. Ikkinchi bosqichda ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan foyda Tovarlarini sotilganidan so'ng olingan pul daromadi bilan xarajatlarning farqi ko'rinishida to'liq namoyon bo'ladi. Foyda miqdoriga ta'sir etuvchi ikkinchi omil-korxonada o'z mahsulotlarini sotuvchi narx darajasi bo'lib, bu o'rinda mahsulot narxi, qiymati va tannarxi o'rtasidagi nisbatning beshta asosiy holatini ajratib ko'rsatish mumkin. Korxonada foydasining mutloq miqdori uning massasini tashkil qiladi. Foyda massasining ishlab chiqarish xarajatlariga nisbati va uning foizda ifodalanishi foyda normasi deyiladi. Amaliyotda foyda normasi hisoblashning ikki variantidan foydalaniladi. Milliy iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish birliklari o'z faoliyati natijalaridan ko'proq foyda olishga harakat qiladilar. Har qanday korxonada oladigan foyda nafaqat o'zining tovarini ancha yuqori narxda sotishga, balki Tovar ishlab chiqarishni sotishga qilinadigan xarajatlarni kamaytirishga ham intiladilar. Ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari-bu mahsulot ishlab chiqarish uchun ijtimoiy zaruriy mehnatning umumiy sarflaridir. Ular mazkur mahsulotni ishlab chiqarish jamiyat uchun qanchaga tushganligini ko'rsatadi. Tovar ishlab chiqarish sharoitida ijtimoiy xarajatlar pul shaklida namoyon bo'ladi. Tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va uni iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq barcha sarflar ishlab chiqarish xarajatlari deyiladi. Ishlab chiqarish sarf-xarajatlari tarkibiga xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqligi va energiya uchun qilingan xarajatlar, asosiy kapital amortizatsiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalari, foiz to'lovlari va boshqa xarajatlar kiradi. Mahsulot birligini ishlab chiqarishga qilinadigan sarf-xarajatlarni hisoblash uchun o'rtacha umumiy, o'rtacha domiy va o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar tushunchalaridan foydalaniladi. O'rtacha umumiy xarajatlar yalpi xarajatlarning ishlab chiqarilgan Tovar miqdoriga nisbatiga teng. O'rtacha doimiy xarajatlar doimiy xarajatlarni ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. O'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar o'zgaruvchi xarajatlarni ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Xulosam shuki, mavzuning mazmuni korxonada xarajatlari va foyda haqida ekan, avvalambor, xarajat ozi nima? Xarajat-tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va

iste'molchilarga yetkazib berishga qilinadigan barcha iqtisodiy resurs sarflarini anglatadi. Xarajatsiz xarakat nolga teng degandek ,har bir kasbda,sohada muvaffaqiyatga foydaga erishishni istagan inson avval sarmoya kiritadi va uni ortidan daromadga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Korxonona iqtisodiyoti fanining o'quv dasturi URGANCH-2022
- 2.<http:kompy.info>
- 3.<https: arxiv.uz>